

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 320-326 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

GLOBAL MOLIYAVIY TASHKILOTLAR VA ULARNING FUNKSIYALARI



Mamayusupova Shohina Ulug'bek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro integratsion birlashmalar faoliyati, ushbu birlashmaga kiruvchi mamlakatlar bilan o'zaro savdo aloqalarini, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish lozimligi aytib o'tilgan. Maqolada hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari, islom moliyasi xalqaro fondlari bilan aloqasi kuchayib borayotgani ko'rsatilgan. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqish, jahon standartlariga mos tovarlarni ishlab chiqarish va natijada respublikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik yanada rivojlanib, kichik va o'rta biznes korxonalarini katta yutuqlarga erishishi izohlangan.

Kalit so'zlar: xalqaro integratsion birlashmalar, hamkorlik munosabatlari, islomiy moliya aktivlari, tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqarish infratuzilmasi, eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat.

Kirish:

Xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarning institutsional asosini ko'plab xalqaro moliyaviy (global) tashkilotlar tashkil qiladi. Bu tashkilotlar o'zlarining yirik moliyaviy resurslari va salohiyati bilan xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlarni tartibga solishadi. Ular jahon moliyaviy resurslari bozorini barqarorlashtirish va xalqaro kapital harakatini rag'batlantirish maqsadida tuzilgan.

Xalqaro (global) moliyaviy tashkilotlarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining maxsus xalqaro moliya institutlari, jumladan, Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) va Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (Jahon banki guruhi) kiradi. Shuningdek, Xalqaro Hisob-kitoblar banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi boshqa xalqaro moliyaviy institutlar ham mavjud. [1]

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jahon hamjamiyatining xalqaro moliya va jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish bo'yicha sa'y-harakatlarini birlashtirish.
- Davlatlararo valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solishni amalga oshirish.
- Jahon valyuta, hisob-kitob va kredit siyosati strategiyasi va taktikalarini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar orasida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF) alohida ahamiyatga ega. 1945 yilda tashkil etilgan ushbu fondning maqsadi a'zo mamlakatlarning valyuta-moliya siyosatini muvofiqlashtirish, to'lov balansini tartibga solish va valyuta kursi barqarorligini qo'llab-quvvatlash uchun qarz berishdir. XVF iqtisodiy nobarqaror mamlakatlarga imtiyozli moliyalashtirish va turli texnik yordamlar ko'rsatadi.

XVF xalqaro valyuta tizimining barqarorligini ta'minlash uchun quyidagi mexanizmlar bo'yicha qarz beradi:

1. 1962 yilda qabul qilingan "Qarz olish to'g'risidagi bosh shartnoma", unda 11 ta ishtirokchi qatnashadi.
2. 1997 yilda qabul qilingan "Qarzlarni to'g'risidagi yangi shartnoma", 25 ta davlat va muassasalar ishtirok etadi.
3. "Stend-bay" kreditlari, qisqa muddatli qarzlarni bo'lib, 12-18 oylik muddatga a'zo mamlakatlarning to'lov balansidagi muammolarni hal qilish uchun beriladi.
4. Kengaytirilgan kredit mexanizmi, a'zo mamlakatlarga uch-to'rt yilga kredit olish huquqini beradi.
5. 1999 yil noyabrda joriy etilgan Kambag'allikka qarshi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash mexanizmi.
6. 1963 yilda joriy etilgan qoplovchi moliyalash, jahon bozorlarida tovar xomashyo narxining o'zgarishi natijasida eksport tushumi kamaygan yoki oziq-ovqat importi qiymati oshgan mamlakatlarga beriladi.
7. Favqulodda yordam, to'lov balansida muammolar yuzaga kelgan a'zo mamlakatlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladi.

O'zbekistonning xalqaro valyuta fondlari bilan oxirgi moliyaviy shartnomasi 1995 yil 18 dekabrda 124,7 mln. SDR miqdorida "Stend-bay" krediti olish to'g'risida tuzilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekiston XVF oldida hech qanday majburiyatga ega emas.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki – Jahon banki guruhining asosiy tashkiloti bo'lib, birinchi davlatlararo investitsion institut hisoblanadi. [2]

Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Bankining (XTTB) maqsadi – a'zo mamlakatlar iqtisodiyotini qayta qurish va rivojlanishiga kapital qo'yilmalar berish, shuningdek, xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlashdir. Bank, shuningdek, to'lov balansi muvozanatini ta'minlash uchun qarzlarni beradi.

2009 yil oxirida XTTB tomonidan berilgan kreditlar miqdori 479 milliard dollarga yetdi. 2009 yilda bank 42 ta mamlakatga jami 32,9 milliard dollar miqdorida 1226 ta yangi loyiha uchun kredit ajratdi.

Adabiyotlar sharhi:

J. Ataniyazovning fikriga ko'ra, xalqaro moliya mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni aks ettiradi va xalqaro moliyaviy oqimlarni, jumladan, pul oqimlari, import va eksportdan tushadigan valyuta tushumlarini ifodalaydi. Ushbu oqimlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyasini aks ettirishi mumkin, lekin turli mamlakatlarga tegishli bo'lgani uchun ular davlatlar o'rtasidagi pul oqimlari harakatini namoyon etadi. Shuningdek, kredit mablag'lari oqimi ham ikki tomonlama bo'lib, bir tomondan qarz berish, ikkinchi tomondan esa uning qaytarilishi va foizlarning to'lanishini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ushbu oqimlar asosida moliyaviy resurslarning davlatlar o'rtasidagi

harakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi valyuta kurslari va bojxona tariflari asosida boshqariladi.

Moliyaviy resurslar xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari faoliyati jarayonida shakllanadi va foydalaniladi. Ushbu institutlar va tashkilotlar davlatlararo tuzilma bo'lib, muayyan funksiyalarni bajaradi. Ularning moliyaviy ta'minoti umumlashgan (masalan, BMT budjeti) yoki maqsadli (aniq dasturlar va tadbirlar uchun mo'ljallangan) fondlar orqali amalga oshiriladi. [3]

Moliyaviy resurslarning xalqaro darajada markazlashuvi jahon xo'jaligi ehtiyojlarini ta'minlaydi. Bunday resurslarni shakllantirishning iqtisodiy shart-sharoitlari iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi, turli sohalardagi xalqaro loyiha va dasturlarni amalga oshirishda mamlakatlarning ishtiroki hamda kredit va savdo munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi.

Shuningdek, qator mualliflar (masalan, V.A. Slepov va E.A. Zvonova) xalqaro moliya bozori ta'rifida bozorning mohiyatini emas, balki moliyaviy tizim tushunchasini asos qilib oladilar. Ularning fikriga ko'ra, xalqaro moliya bozori xalqaro moliyaning xalqaro moliya tizimidagi ma'lum doiralardagi harakati shakli sifatida qaraladi. Jahon moliya bozori esa xalqaro moliya bozoriga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, xalqaro va milliy moliya bozorlari yig'indisini o'z ichiga oladi, bu bozorlarning har biri o'ziga xos xususiyatlar va mustaqillikka ega.

Xalqaro moliya bozori quyidagi bozorlarni o'z ichiga oladi: valyuta, kredit, fond, investitsiyalar va sug'urta bozori. Biroq, mualliflar bu gradatsiyaning shartli ekanini ta'kidlashadi, chunki ayrim bozorlarda (masalan, moliyaviy vositalar bozori) bir nechta bozorlarni o'z ichiga oladigan hodisalar mavjud. [4]

R.E. Olimova o'z tadqiqotida O'zbekiston va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqadi va O'zbekistonning yirik xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarining kuchayib borayotganini ta'kidlaydi. Bu O'zbekiston tadbirkorlariga jahon bozoriga chiqish va iqtisodiy, ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish imkonini beradi. [5]

R.X. Xojimatovning fikricha, jahon moliya bozori (JMB) milliy chegaralar hisobga olinmagan global bozor bo'lib, unda turli moliyaviy aktivlar muomalada bo'ladi. Bu global moliyaviy muhitdir, lekin bu milliy bozorlarning mexanik yig'indisi emas. JMB turli milliy va xalqaro kredit, valyuta, fond, derivativlar va qimmatbaho metallar bozorlarida muomalada bo'lgan moliyaviy vositalar yig'indisidir. [6]

Sh.Yovkochevning "Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasidagi investitsion faoliyati tahlili" nomli maqolasida xalqaro moliya institutlarining O'zbekistondagi investitsion faoliyati ko'rib chiqiladi. Maqolada Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banklarining ajratgan kredit liniyalari tahlil etilgan. [7]

Jahon moliya bozorida qarz kapitali, qarz vositalari va hosilaviy shartnomalar savdo obyektlari sifatida namoyon bo'ladi. Mixaylovning fikricha, jahon moliya bozori bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazaridan quyidagicha farqlanadi: "xalqaro moliya bozori deganda, bank vositalari bozorida pul kapitalini subyektlar o'rtasida qayta taqsimlash va yig'ish bilan bog'liq yo'nalishni ta'minlovchi, xalqaro va mahalliy bozorlarning o'zaro uyg'unlashuvi va yig'indisi hamda boshqa moliyaviy muassasalar tomonidan kapitalga

talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish" deb e'tirof etilgan. Moliya bozori, ya'ni ssuda kapitallari bozori, asosiy vazifasi harakatsiz pul mablag'larini ssuda kapitaliga aylantirishdan iborat.

Tahlil va natijalar:

Hozirgi sharoitda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi har bir mamlakatning milliy iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu aloqalarni hisobga olish har bir davlatning samarali tashqi iqtisodiy siyosat yuritishining zarur shartiga aylangan. Mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hozirgi bosqichda oldingi davrlardan sezilarli farq qilmoqda. Xalqaro moliya munosabatlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular milliy va jahon xo'jaligi muammolarini mujassamlashtiradi. Jahon xo'jaligining globallasuvi va baynalmilallasuvi natijasida tovarlar, xizmatlar va ayniqsa kapital oqimlarining xalqaro darajadagi aylanmasi kengaymoqda.

Markaziy Osiyo hamdo'stligi doirasidagi integratsiya jarayonlarida xalqaro iqtisodiy integratsiyaning tajribasidan foydalanish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyatning har bir subyekti, jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan chet el valyutasidagi daromadga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga haqlidir. [8]

Hozirda O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatda hamda iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi oshib bormoqda. Bunda davlatimiz hukumatining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri belgilanganligi yutuqlar va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratmoqda.

Ma'lumki, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim vositasi hisoblanadi. U mamlakatning jahon hamjamiyatiga bo'lgan aloqasini ifodalab, uning istiqbolini belgilab beradi. MDH mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining katta qismini tashkil etib keladi. Yaqin yillardagi tashqi savdo aylanmasining umumiy ko'rsatkichlari 2017-yilda 34,2%, 2018-yilda 36,3%, 2019-yilda 34,6%, 2020-yilda 32,2%, va 2021-yilda 37,7%ni tashkil etib, asosiy savdo hamkorlarimiz guruhi bo'lib kelmoqda. [9]

Jahon iqtisodiyotida ro'y bergan muhim o'zgarishlar xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi, bu ta'sir ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Ushbu o'zgarishlar qatoriga jahon va hududiy valuta tizimlaridagi o'zgarishlar, valuta tizimi tamoyillarining o'zgarishi, qarzdorlik inqirozlari, mamlakatlar tomonidan iqtisodiy integratsion birlashmalarning tuzilishi, xalqaro va mintaqaviy moliya tashkilotlarining vujudga kelishi, transmilliy korporatsiya va banklar faoliyatining kengayishi, shuningdek, jahonda ro'y bergan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlarni kiritish mumkin.

Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat, korxonalar, tashkilotlar, firmalar, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, birjalar va jismoniy shaxslar. Ushbu munosabatlar turli mamlakatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlari, davlat va boshqa mamlakatlar hukumatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari o'rtasida


yuzaga kelishi mumkin. Davlat xalqaro moliya sohasida faoliyat ko'rsatuvchi asosiy subyekt hisoblanadi.

Markaziy banklar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish organlari bo'lib, ularga banknotalar chiqarish, pul muomalasi, kredit va valuta kursini tartibga solish, valuta zaxiralarini saqlash vazifalari yuklatilgan.

Xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan bo'lib, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organlarga ega va jahon xo'jaligi birliklarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish vazifalarini bajaradi.

Xalqaro valuta-kredit va moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish uchun davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan.

Transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar xalqaro moliyaning rivojlanishida faol rol o'ynaydi.



1.2-rasm. Xalqaro moliyaning tuzilmasi


Jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoni xalqaro moliya munosabatlarining rivojlanishi evolutsiyasi bilan qat'iy bog'liqdir. Bu munosabatlar jahon xo'jaligining shakllanishi jarayonida alohida o'rin tutadi va jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro moliya munosabatlari, jahon xo'jaligining tarkibiy elementiga aylanib bordi va hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlari jahon xo'jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin. U bu tizimda jahon xo'jaligi bozor iqtisodiyotining obyektiv qonuniyatlariga bo'ysunuvchi xalqaro moliya munosabatlari orqali o'zaro bog'liq milliy iqtisodiyotlar yig'indisi sifatidagi global iqtisodiy tizimdir.

Milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy subyekti hisoblanadi, shuningdek, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida uning tashqi dunyo bilan aloqalari holati va mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi. Mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtirokining kuchayishida xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish mexanizmlarini samarali tarzda tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqaro moliya munosabatlarining predmeti ikkita muhim tarkibiy qismni o'ziga qamrab oladi: xalqaro moliyaviy munosabatlar va ularni amalga oshirish mexanizmi. Mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro moliya munosabatlari muayyan mexanizm orqali amalga oshiriladi, bu esa xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me'yoriy normalar, davlatlararo darajadagi shartnomalar va bitimlar, mamlakatlar o'rtasida o'zaro qabul qilingan kelishuvlarga asoslanadi. [10]

Tashqi savdo aylanmasidagi eksport hajmi koronavirus pandemiyasidan so'ng haligacha 2019-yildagi ko'rsatkichlarga yeta olmayapti. Import hajmining o'sishida esa quyidagilarni xulosa qilishga asos bo'ladi. O'zbekistonning xaridorlarining tovarlariga talabning kamligi, mustahkam o'ringa ega emasligi, bizning bozorlarimizda esa xaridorlarimizning tovarlariga nisbatan ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Yaqin yillarda tashqi savdo aylanmasida xaridor mamlakatlarining ulushi sezilarli darajada o'smayotgani kuzatilmoqda.



2-rasm. O'zbekistonning 2021-yildagi Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari

Xalqaro moliya munosabatlarini rivojlanishida kapitalning xalqaro harakati, ayniqsa, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklida u yoki bu mamlakatga kirib borishi, shuningdek, xalqaro savdoning mahsulotlar, turli xizmatlar ko'rsatish, texnologiyalar sohasidagi rivoji ijobiy omil sifatida ta'bir ko'rsatmoqda. Jahon savdosining o'sishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kengayishi, xalqaro kapital harakatining rivoji,

chegaralararo tovarlar, xizm atlar ham da ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro m oliya m unosatlarining rivojlanishiga, shuningdek, jahon moliya bozorlarining taraqqiy etishiga ham da transm illiy korporatsiyalar faoliyatining kengayishiga, xalqaro moliyaviy faoliyatning boshqa jabhalarini jadallashuviga im kon yaratdi.

Xulosa va takliflar:

Shunday qilib, mamlakatimizning xalqaro integratsion birlashmalardagi faoliyatini, ushbu birlashmaga kiruvchi mamlakatlar bilan o'zaro savdo aloqalarini, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish lozim. Hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari, xalqaro fondlari bilan aloqasi kuchayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqish, jahon standartlariga mos tovarlarni ishlab chiqarish demakdir. Natijada Respublikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik yanada rivojlanib, respublikamiz kichik va o'rta biznes korxonalarini katta yutuqlarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni.
2. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. / J.X.Ataniyazov, E.D.Alimardonov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. – 432 b.
3. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Красавиной Л.Н. – М.: Финансы и статистика, 2007. С. 289.
4. Михайлов Д.М. Мировой финансовый рынок: тенденции и инструменты. – М.: Издательство «Экзамен», 2000. С. 150.
5. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. – М.: Маркетинг, 2003.
6. Международный финансовый рынок. / Под ред. В.А.Слепова, Е.А.Звоновой. – М.: Магистр, 2009. С. 34. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил. www.iqtisodiyot.uz
7. Olimova R.E O'zbekiston va xalqaro moliya tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari.
8. Хожиматов Р.Х. Жаҳон молия бозори: назарий қарашлар ва умумий тавсифи. // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий-электрон журнали. 3-сон, май-июнь, 2015 йил.
9. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтларининг Ўзбекистон Республикасидаги инвестицион фаолияти таҳлили. // Экономика и бизнес. 2019, 1 (121).
10. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтларининг жаҳон иқтисодиёти архитектурасидаги ўрни. 2018, 6 (114).
11. Ёвқочев Ш. Халқаро молия институтлари фаолиятини ташкил этувчи иқтисодий-математик моделларнинг назарий асослари. // Экономика и бизнес. 2019, 10 (130).
12. Islomiy moliyani rivojlantirish korporatsiyasi hisoboti, 2020. <https://cyberleninka.ru/>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

